Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

# Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma’lumotlar)

**2018 yil yanvar-iyul**

**Raqamlar:**

- 2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi **-** 5298,3 mlrd. so`mni tashkil etdi**.**
- Moliyaviy xizmatlarning o’sish sur’ati 133,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1417,9 ming so’mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5298,3 mlrd.so'mga teng bo’ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (31,6 %), transport xizmatlari (27,9 %), moliyaviy xizmatlar (9,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %) tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi,%**



Zamonaviy O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda viloyatning har bir shahar va tumanlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog’liq.

| | Hajmi, mlrd.so'm | O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|---|---|---|
| **Xizmatlar - jami** | **5298,3** | **106,9** |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 348,0 | 118,0 |
| Moliyaviy xizmatlar | 519,9 | 133,1 |
| Transport xizmatlari | 1478,8 | 105,0 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 132,6 | 102,6 |
| Savdo xizmatlari | 1674,6 | 102,0 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 151,3 | 102,4 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 169,5 | 102,3 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 72,0 | 112,1 |
| Ijara xizmatlari | 192,7 | 104,2 |
| Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 155,3 | 102,2 |
| Shaxsiy xizmatlar | 226,2 | 101,1 |
| Me'morchilik sohasidagi xizmatlar | 46,6 | 143,4 |
| Boshqa xizmatlar | 130,8 | 103,4 |

2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (43,4 %), moliyaviy xizmatlar (33,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (18,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (12,1 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

**2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**




Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati - 106,7 %, moliyaviy xizmatlar - 142,4 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 120,5 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 111,2 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi. Jumladan, bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo’lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

**Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm**




Savdo xizmatlari ko’rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida eng yuqori hajmni - 1674,6 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ulgurji va chakana savdo tarmoqlarida ushbu xizmatga bo'lgan talabning yuqoriligi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1417,9 ming so'mga teng bo’ldi. O’sish sur’ati o’tgan yilning shu davriga nisbatan 104,9 % ni tashkil etdi.




**Viloyat statistika boshqarmasi**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo’limi**

Mas’ul: A.Abdullayev